

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY HAYOTINING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

Muborakxon Musayeva

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Behbudiy o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati, matbuotdagi ishtiroki va dramaturgiyadagi muhim o'rni bilan tanilgan. Maqolada uning bolalik davri, ta'lim olish jarayoni, "Padarkush" tragediyasining mazmuni va ijtimoiy ta'siri, shuningdek, Behbudiyning Turkistondagi milliy uyg'onish harakatidagi roli, chop etgan maqola va jurnallari tahlil qilinadi. Behbudiyning xalqni bilimga chorlashi va ma'naviy yuksalish yo'lidagi g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, uning merosi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi.*

Kalit so'zlar: *Ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, "Padarkush" asari, Turkiston, O'zbekiston tarixi, ijtimoiy adolat, dramaturgiya, ma'naviy yuksalish, Sayohat xotiralari kundaligi.*

Tarix qanchadan – qancha buyuk zotlar, voqealar va g'alabalarga guvohlik beradi. Shunday buyuk ishlardan biri bu o'z zamonasining yirik allomasi, pedagogi, publististi va jurnalisti Mahmudxo'ja Behbudiyning dunyoga kelishi XIX-XX asrning tahlakali vaziyatlariga to'g'ri keladi va uning butun hayoti Turkistondagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Adib milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik harakatlari yetakchisi sifatida Turkiston xalqlarining yuksalishi yo'lida muhim ishlarni amalga oshiradi. Bunga misol qilib keltirishimiz mumkinki uning yozgan maqolalari, o'qituvchi va jurnalist sifatidagi faoliyati va albatta, sahnalashtirilgan "Padarkush" tragediyasi milliy uyg'onish va islohotchilik ruhini xalq orasida tarqalishida muhim rol o'ynadi. Uning maqsadi xalqni milliy o'zligini anglash, madaniyatini asrash va taraqqiyot yo'lga boshlab chiqish edi. Bundan sal kam 100 yil oldin sharqshunos Laziz Azizzoda Behbudiy to'g'risida juda o'rinli yozgan: "Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi ilm va ma'rifat arbobiga haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykalidir"²⁴.

Bor yo'g'i 45 yil yashagan bo'lsada, xalqqa va jamiyatga juda katta manfaatlar keltiradigan ishlar bilan tarixda qolgan Behbudiy 1875-yilda Samarqandda dunyoga keldi. Yoshligidanoq ilmga intiluvchan bo'lib, dastlabki ta'limini mahalliy madrasada olgan, shu bilan birga bu madrasa unga diniy va asosiy bilimlarni berdi. Lekin tez orada u rus-tuzem maktabida ham ta'lim olib, arab, fors, rus tillarini o'rgandi. Behbudiy keyinchalik bu bilimlarni o'z xalqining taraqqiyoti uchun qo'lladi. Uning yoshligida olgan ta'limi, o'qituvchilar va Samarqand shahrining o'sha davrdagi ijtimoiy muhiti uning kelajakdagi ma'rifatparvar sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

²⁴ Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent 1999y. 5-bet.

“Uning otasi o‘z davrining fiqh sohasi bo‘yicha yirik olimlaridan biri bo‘lgan va fiqh borasida ko‘plab kitoblar yozgan edi. Behbudiy ota kasbidan borish bilan bir qatorda Qur’onni ham yod olgan. Uning bobosi Solihxo‘ja imomlik qilib ro‘zg‘or tebratgan”²⁵ deb takidlaydi tadqiqotchi N.X.Avazov. Uning ikkita singlisi ham Qur’onni yoddan bilganlari uchun ularni “Qoriyabegim” deb atashgan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra adibning kelib chiqishi Ahmad Yassaviyga borib taqaladi degan taxminlar ham bor. Uning ikki tog‘asi bo‘lib, ular ham Behbudiyning ta’limida yetarlicha hissa qo‘shganlar. Masalan, u yeti-olti yoshlarida Qur’on o‘qishni tog‘asi Muhammad Siddiqdan o‘rgansa, 15 yoshidan boshlab yana bir tog‘asi Mulla Odildan arab tili gramatikasi, matematika, huquqshunoslik asoslari, mantiq va tilshunoslik kabi o‘sha paytda mavjud bo‘lgan fanlarni yaxshilab o‘rganishga kirishadi.

1893-yilda Behbudiyning otasi vafot etadi va 18 yoshli Mahmudxo‘ja mustaqil hayotga qadam qo‘yib, qozixonaga mirza bo‘lib ishga kiradi. Mirzalik ishi unga nafaqat hayotiy tajriba berdi, balki tog‘alaridan olgan bilimlarini amalda qo‘llash uchun zamin yaratdi. 1899 yili 25 yoshida Behbudiy birinchi bor Xaj safariga chiqadi. Uning qilgan safari, unga dunyoqarashini ochishga yordam beribgina qolmasdan yana ham umumjahon tarzda fikrlashga o‘rgatdi. Sayohat chog‘ida Behbudiy Rossiya shaxarlari, Eron, Turkiya, Misr mamlakatlarida bo‘ldi. Safar jarayonida yo‘l yurishning barcha turlari poyezdda, kemada, otda va piyoda yurib dunyoni ko‘rdi, boshqa yerdagi hayot bilan Turkistondagi yashash tarzini taqqoslash imkoniga ega boldi. Bundan tashqari, savdo ishlari, zarur va muhim bitim va munosabatlar tuzish, ham diniy ham dunyoviy aloqalar o‘rnatilishi, fikr almashish, zarur kitoblar, gazeta va jurnallar, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar sotib olish... Behbudiy vataniga qaytib kelgach ma’rifat va ziyo tarqatishdek savobli va ulug‘ishlar uchun asqotdi.

1903-1904-yillarda Mahmudxo‘ja Peterburg, Qozon, Orenburg, Qrimda bo‘ldi va maorif soxasidagi Rossiya va Qirim-Tatar tajribasi, Ismoil Gasprinskiy bilan yaqindan tanishuv Behbudiyning butun say harakatini jamiyatni qayta qurish rejalarini amalga oshirishga qaratdi. 1914-yilda u bu borada ancha tajriba orttirdi, hamda bu bilimlar Behbudiyi yanada shijoat bilan faoliyat olib borishga da’vat etardi.

U yana ko‘proq izlanish maqsadida navbatdagi chet el safarini uyushtirdi. Bu niyatini o‘z o‘quvchilariga “doktorlarning maslahati” deb izohladi va salomatligini tiklashni reja qilganini aytdi²⁶. Bu paytga kelib u 7-8ta kitob nashrdan chiqargan edi. U borgan barcha mamlakatlarining iqtisodiyoti, geografiyasi, tarixi, ijtimoiy va siyosiy ahvolini o‘rgandi va bu haqida “Oyna” jurnalining 15 ta sonida “Sayohat xotiralari” nomi ostida kundalik yozuvlarini e’lon qilib bordi va unda Turkiya va Jazoir, Suriya kabi arab davlatlari to‘laqonli va mukammal tavsiflanadi. Adib u yerda oliy o‘quv yurtlari borligi, ularda talabalar ingliz, fransuz va nemis tilini o‘rganishlarini guvohi bo‘ladi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalari borligini ko‘radi va unga havas qilib, ona Turkistonning taraqqiyotdan naqadar ortda qolganiga afsuslar bilan yozadi: “Bu yerda Turkistondan tashqari, dunyoning barcha mamlakatlaridan bolalar kelib

²⁵ Maxmudho‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. “Akademiya” nashriyoti. Toshkent 1999y. 7-bet

²⁶ Maxmudho‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. “Akademiya” nashriyoti. Toshkent 1999y. 10-bet

o'qishadi", – deb baland ovozda nido qiladi. Uni kutubxonalar, u yerdagi juda ko'plab jurnal va gazetalar xayratga soladi²⁷.

Nemis tadqiqotchisining fikricha, Behbudiy xotira kundaliklaridagi geografik va savdo-sotiqqa oid qaydnomalar yaqin kelajakda mamlakatlararo savdo-sotiqqa va sayyohlik aloqalarining vujudga kelib o'rnatilishi niyatida yozilgan bo'lsada, shu bilan birga, "Sayohat xotiralari", "Oyna" jurnalining o'zi singari, O'rta Osiyo burjuaziya vakillari va sarmoyadorlariga dunyoni Parijdan Yaponiyaga qadar aks ettiruvchi oyna bo'libgina qolmay, balki Turkiston uchun musulmon Sharqini, islom dunyosini kashf etibgina, qolmay uning sivilizatsiyasini ko'rsata oldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy padari buzrukvori nomi berilgan "Nashriyoti Behbudiya" xususiy nashriyot egasi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, va Andijon shaxarlaridagi kitob do'konlarining xo'jayini, "Oyna" jurnali muxarriri sifatida ham mashhur bo'lgan. Xususan, Samarqanddagi "Behbudiya" kutubxonasi o'z uyida, ruslar istiqomat qiladigan qismida ochilgan bo'lib, bu shunchaki kutubxona emas, balki do'kon ham edi. Bu maskanga tashrif buyuruvchilar chet el mamlakatlari va albatta Turkistonda chop etilgan kitoblarni ko'rib, sotib olishlari mumkin bo'lgan. Zamondoshining guvohlik berishicha, bu kutubxona Behbudiy vafotidan so'ng Turkistonda eng yirik kutubxonalardan biri bo'lib qoldi²⁸.

Behbudiyning fikricha, jamiyat rivoji va taraqqiyotida jamiyat ongida tarix fani qanday o'rin tutishi kerak? Uning bu muammoga bo'lgan munosabati "Tarix va Jug'rofiya" maqolasida o'z aksini topgan bo'lib, bu tadqiqot jiddiy masalalarni ko'tarib chiqqan asarlardan biri sanaladi. Tabiiy va ijtimoiy fanlarni u "Aqlli ilmlar" deb nomlangan umumiy tushuncha ostida birlashtiradi. Adibning fikricha tarix davlatlarning gullab yashnashi va yo inqirozi sabablarini, kishilarning e'tiqodi darajasini, musulmonchilikka putur yetishi va islomga shak keltirib, uning asoslarini buzib ko'rsatish sabablarini tushuntirib beradi. Behbudiyning taraqqiyoti fanga beqiyos o'rin ajratib qaraganligiga u bilan Buxoro va Samarqandda bir necha marta uchrashgan Sadriddin Ayniy guvohlik beradi. Sadriddin Ayniy adib bilan birinchi marta 1809-yili Samarqandda bir joyda o'tirganligi va hammaning diqqatida bo'lganligi haqida hikoya qiladi. "Bu kecha Mahmudxo'ja ko'pgina fanning masalalarida so'z chiqarib yerdan, ko'kdan, yulduzdan, oydan o'sha vaqtda biz eshitmagan ko'pgina narsalar haqida so'zladi"²⁹.

Behbudiy "Hurriyat bermas olinur" nomli maqola muallifi Munavvarqorining fikriga qisman qo'shiladi lekin ko'pchilik jadidlar singari mustamlakachilikka qarshi qonsiz kurash tarafdorlaridan edi. Uning fikricha taraqqiyotga erishishning tadrijiy yo'li ya'ni asta sekinlik bilan amalga oshuvchi usullardan foydalanish lozim. Buni Behbudiyning ushbu gaplarida ko'rishimiz mumkin "Agar butun Turkiston xalqi ittifoq qilsa qon to'kilmas. Yer va amlok ham taqsim bo'lmay qolur. Din ham rivoj topur. Ming karra dodu bedotki ixtilof etmoq uchun

²⁷ Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent 1999y. 11-bet

²⁸ Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent 1999y. 14-bet

²⁹ Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent 1999y. 21-bet

ittifoq etkanimiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtlikg'a duchor bo'lurmiz. Butun Turkiston ittifoq etsa 15 millionlik bir quvvat imlog'a kelurki, munga yer titraydur!"³⁰

Behbudiy haqida gapirganimizda uning "Padarkush" asarini tariflamasdan o'tishimiz joiz emas. Behbudiy bu asarini 1911-yilda yozadi va u birinchi o'zbek dramasi edi. Drama tuzilishi jixatidan 3 parda va 4 manzaradan iborat bo'lgan. Milliy fojiaga asoslangan bu asarni nashr qilish dastlab cheklanadi.

"Padarkush" so'zining ma'nosi "Ota qotili" degan ma'noni beradi yoxud "o'qimagan bolaning taqdiri" haqida so'z yuritadi va u asar 2 yil o'tgach kitob holatida chop etiladi, hamda 1914-1916-yillarga kelganda "Turon truppasi" Farg'ona vodiysini shu spektakli bilan aylanib chiqadi. Bu spektakl o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishiga muhim bo'lib xizmat qiladi.

"Padarkush" asarida ilm va ilmsizlik, tarbiya va tarbiyasizlik, ma'rifat va jaxolat, bolalarning hayotida ota-onaning tutgan orni va oilada beriladigan ta'lim tarbiyalar, ichkilikning zararli oqibatlari haqida so'z boradi. Ushbu asarni tushunishga oson bo'lgan yo'li bu har qanday yomonlik, fisq-u fujur, xorlik, jaxolat, ichkilikbozlik, tarbiyasizlik va shu kabi bir qancha yomon illatlarning negizi ilmsizlikdir aslida degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishlarning eng oson va go'zal yechimi bu ilm olmoq, kitob o'qimoq, bir sohaning egasi bo'lmoq va jamiyatga yaxshilik ulashmoqdir. Uning faoliyati, ta'lim va islohotlar borasidagi g'oyalari hukumat tomonidan xavfli deb qaralgan va unga qarshi chora tadbirlar ko'rilgan. Behbudiyning 1919-yilda qatl etilishi uning millatparvarlik yo'lidagi kurashining achchiq yakuni bo'ldi.

Bugungi kunga kelib Behbudiy hayoti va ijodining muhim va dolzarbligi shundaki, u necha necha yillar oldin bizning bugungi kundagi xatolarimiz, kamchiliklarimiz, bizni ham ma'naviy ham iqtisodiy jihatdan yemiruvchi illatlar xususida bot-bot aytgan. Bunga misol qilib, "Bizni kemiruvchi illatlar deganda zahr-u maraznimi gumon etarsiz, yoinki sil yo mohovliknimi dersiz, yo'q andin ham yomonroq, andin ham jonxaroj, bevogar, vayron va g'arib etguvchi bir dard biz Turkistonliklarni bir shaxar va bir qishloqqa yoinki, yarim madaniy yarim vaxshiy sinflarimizgacha istiloh etib, butun tirikchiligimizga sezilgan, bizni inqirozga, tahlikaga va jahannamga yumalatayotgan to'y va aza ismli dushmanidir". Bugungi kunimizga nazar solsak o'zbek xalqi 1 kunlik to'y yoki 3 kunlik aza deb qancha qanchalab ovoragarchilik va isrofgarchilikka yo'l qo'yayotganlarini ko'rmasdan qolmaymiz. Afsus bilan aytiladigan joyi ham shuki insonlar butun umr ishlab topgan jamg'armalarini yoki necha yillardan beri asrab kelayotgan mollarini, yoinki yaxshi niyatlar bilan eski nimchasining ichki cho'ntagiga solib qo'ygan pullarini ham yig'ib to'y o'tkazishi qanchalar to'g'ri?! Bir kunlik to'y deb odamlar bilsin deb, xo'jakor'sin qilib, dabdaba bilan to'ylar qilishning nima keragi borku undan kim manfaatdor, yetimlar qolib, to'qlarning qornini to'ydirishning kimga keragi bor. Hozirgi kunlarimizda o'zimiz guvoh bo'layotgan ayanchli holatlardan biri bo'lib qoldiki, avval

³⁰ Maxmudho'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent 1999y. 25-bet

dabdabali to'y va oz muddatda so'ng ajrim bo'lishi. Afsuski bu vaziyat qo'l bilan sanoqlik emas, balki sanog'i tugamas darajada ko'p uchramoqda.

Insonlar hayotlik chog'larida ularning qadriga yetmaganlar yoki ota-onasi hurmatlarini, duolarini qozona olamagan insonlar ham borki, ular yaqinlarini yoqotganlaridan keyin u odamlar uchun emas, undan ham ko'proq mayitning oshi, marakasi, qaysi joyda, qaysi vaqtda va kimlar bilan o'tkazish to'g'risida ko'proq havotirlantishadi. Hayotlik chog'larida bo'lgan munosabatlar yoki insoniy hislatlar bir chetda qolib huddi hamma narsa odamning marakasi-yu qirq va yil to'ylari bilan o'lchanadigandek go'yo.

Ota-onalarning o'z farzandlarini haddan tashqari erkin va erka qo'yishi yoki ishlar bilan ko'mib qo'yishi, bola tarbiyasini ulfatlardan, yig'inlaridan shaxsiy ishlaridan keyingi o'ringa qo'yishi ilm olisha e'tibor bermasdan "O'qib olim bo'larmiding" yoki "O'qib oyni olib berarmiding" degan fikr yuritishi yosh avlodning hayollarini chalg'itishi u yoqda tursin, yo'ldan ham adashtirishi juda achinarli holat aslida. Shu hususida o'ylaganimizda beixtiyor bir savol tug'iladi, Behbudiy shu kunlarni kelishini bilganmikan, uning yuqorida qayd etgan so'zlari bugungi kunimizga qanchalar muvofiq, qanchalar mos keladi. Balki adibning ham dilog'rig'idir shu achinarli holatlar, necha yuz yillar oldin Turkiston xalqining rivojlanishiga to'sqinlik qilgan bu omillar bugun o'zbek halqining buguni, ertasi va kelajagiga qanchalar ta'sir qilmoqda. Shu o'rinda Muhammad Yusufning ushbu she'ri Behbudiy savollarining javobi o'laroq keltirishni joiz deb bildim:

Alp o'g'lonlar o'lkasi bu ko'hna Turon,
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang.

Haq yo'lida siz ilmning ummatlari,
Xalq yo'lida hidoyati, himmatlari.
Madad bo'lsin, Yassaviylar hikmatlari,
Bobo Mashrab bayotlari, ilm istang.

Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin,
Ixlosingiz, shaxdingizdan shiddat yog'sin.
Ortingizdan mag'rur-mag'rur millat yog'sin,
Mulki Turon najotlari, ilm istang!...

Behbudiy hayoti va ijodi, uning Turkiston uyg'onish davridagi roli va ma'rifatparvarlik faoliyati, shubhasiz, nafaqat yosh avlod uchun balki butun insoniyat uchun ham madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy holatda muhim o'rin tutadi. Uning xalqni bilim va ma'rifatga chorlovchi g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shunday ekan biz yosh avloddan so'raladigan va talab qilinadigan asosiy vazifalardan biri, bu hozirgi kundagi juda murakkab tahlikali davrda turli xil yod g'oyalarga qarshi imunitet xosil qilib, o'z milliy g'ururimizni

unutmasdan Behbudiy va u singari ma'rifatparvarlar qoldirgan boy merosni chuqur anglab, unga amal qilgan holda O'zbekistonning milliy uyg'onishi va madaniy yuksalishida mustahkam poydevor bo'lib, Vatanimizning nufuzini va dovrug'uni nafaqat O'rta Osiyoga balki butun dunyoga baralla namoyish etishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. D.A. Alimova, D.A. Rashidova. – Toshkent: “Akademiya” nashriyoti. 1999. – 54.b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: “Akademnashr”. 2021. – 126.b.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy-milliy uyg'onish harakatining asoschisi. “Complex Print” nashriyoti. – Toshkent: 2019. – 126.b.
4. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar . – Toshkent: “Ma'naviyat”. 2007. – 157.b.
5. Ziyouz.com<https://www.ziyouz.com>.
6. Wikipedia<https://uz.wikipedia.org>.